

## BANKLARDA MOLIYAVIY INQIROZLARNI OLDINI OLISHNING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

**Raxmonqulova G.M.**

Toshkent amaliy fanlar universiteti  
o‘qituvchisi v.b. dotsent PhD

### **Annotatsiya**

Mazkur tadqiqotda banklarda moliyaviy inqirozlarning oldini olishning iqtisodiy ahamiyati va risklarni boshqarish mexanizmlari tahlil qilindi. Kredit, likvidlilik, valyuta va operatsion risklarning banklar moliyaviy barqarorligiga ta’siri baholandi. O‘zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish yo‘nalishlari aniqlandi. Tadqiqot natijasida risk-menejment tizimini takomillashtirish, stress-test amaliyotini rivojlantirish va raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy xavflarni erta aniqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy inqiroz, bank tizimi, kredit riski, likvidlilik riski, risk-menejment, muammoli kreditlar, stress-test, moliyaviy barqarorlik.

### **Аннотация**

В исследовании был проведён анализ экономического значения предотвращения финансовых кризисов в банках и механизмов управления рисками. Оценено влияние кредитных, ликвидных, валютных и операционных рисков на финансовую устойчивость банков. Изучена динамика основных показателей банковской системы Узбекистана и определены направления снижения доли проблемных кредитов. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы риск-менеджмента, развитию стресс-тестирования и внедрению цифровых технологий для раннего выявления финансовых рисков.

**Ключевые слова:** финансовый кризис, банковская система, кредитный риск, риск ликвидности, риск-менеджмент, проблемные кредиты, стресс-тестирование, финансовая устойчивость.

### **Abstract**

This study analyzed the importance of preventing financial crises in banks and examined key risk management mechanisms. The impact of credit, liquidity, currency, and operational risks on banking stability was evaluated. The dynamics of major financial indicators of Uzbekistan’s banking sector were assessed, and approaches to reducing non-performing loans were identified. Based on the findings, practical recommendations were developed to improve risk management systems, strengthen stress-testing practices, and implement digital technologies for the early detection of financial risks and enhancement of financial stability.

**Keywords:** financial crisis, banking system, credit risk, liquidity risk, risk management, non-performing loans, stress testing, financial stability.

## KIRISH

Bank tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini jalb qilish hamda to'lov tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin egallaydi. Shu sababli banklar faoliyatining barqarorligi va moliyaviy xavflarga chidamliligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bank tizimida yuzaga keladigan moliyaviy inqirozlar nafaqat moliya sektoriga, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kreditlash hajmining qisqarishi, likvidlilik muammolarining kuchayishi va banklar to'lovga qobiliyatligining pasayishi investitsion faollikning kamayishiga hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi. Shu bois banklarda moliyaviy inqirozlarning oldini olish va risklarni samarali boshqarish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, risk-menejment tizimini takomillashtirish va xalqaro bank amaliyotida qo'llaniladigan standartlarni joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bank kapitalini mustahkamlash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish ushbu jarayonlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maqola maqsadi banklarda moliyaviy inqirozlarning oldini olishning iqtisodiy ahamiyatini o'rganish, bank risklarining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari o'rganilib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy vositachilik funksiyasini amalga oshiruvchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Banklar faoliyatining barqarorligi moliyaviy tizimning uzluksiz ishlashi, investitsion jarayonlarning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O.I. Lavrushin bank faoliyatida risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tijorat banklarining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [1].

Bank sektorida moliyaviy inqirozlarning oldini olish masalalari xalqaro darajada ham keng o'rganilgan. Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Basel III standartlari bank kapitali yetarliligi, likvidlilikni boshqarish va risklarni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan [2]. Mazkur standartlar zamonaviy bank nazoratining muhim institutsional asosi sifatida e'tirof etiladi.

Frederic S. Mishkin bank risklarini moliyaviy vositachilik faoliyati bilan bog'liq asosiy xavflardan biri sifatida baholab, kredit, foiz, likvidlilik va operatsion risklarni

samarali boshqarish bank tizimi barqarorligini ta'minlashning zarur sharti ekanligini asoslagan [3]. Muallifning fikricha, risklarni erta aniqlash va monitoring qilish moliyaviy inqirozlarning oldini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi xalqaro moliya munosabatlari bilan ham uzviy bog'liq. Vahobov va Murodov global moliya bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlar milliy bank tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etib, tashqi iqtisodiy omillarning banklar faoliyatidagi ahamiyatini asoslab berganlar [4]. Ushbu yondashuv bank tizimida risklarni boshqarishda xalqaro tajriba va standartlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida banklar faoliyatining huquqiy asoslari, risklarni boshqarish tamoyillari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari belgilab berilgan [5]. Mazkur me'yoriy-huquqiy baza bank tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish uchun muhim asos vazifasini bajaradi.

Bank risklari va kreditlash jarayonlari masalalari Abdullayeva tomonidan tadqiq etilib, kredit riskining bank faoliyatidagi ustuvor o'rni, muammoli kreditlar shakllanishining sabablari va ularni kamaytirish yo'llari ilmiy jihatdan yoritilgan [6]. Muallif kredit portfeli sifatini oshirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy barqarorlik hisobotlarida bank aktivlari, kapital yetarliligi, likvidlilik darajasi va muammoli kreditlar ulushining dinamikasi muntazam tahlil qilinadi [7]. Ushbu ma'lumotlar mamlakat bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy inqirozlarning oldini olishda risk-menejment tizimini takomillashtirish, kapital va likvidlilik ko'rsatkichlarini barqaror darajada saqlash, muammoli kreditlarni kamaytirish hamda xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy qarashlar bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va xavflarni samarali boshqarish bo'yicha tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

## **METODOLOGIYA**

O'zbekiston bank tizimida ham risk-menejment tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish, kapital yetarliligini oshirish va stress-test tizimini rivojlantirish bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda tijorat banklari aktivlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Bank aktivlarining ortishi iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash hajmi kengayayotganligini hamda bank xizmatlariga bo'lgan talab oshayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga,

bank kapitali hajmining o‘shishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>.

### TAHLIL VA NATIAJALAR

O‘zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari ijobiy tendensiyaga ega bo‘lib, amalga oshirilayotgan islohotlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy xavflarni kamaytirish, muammoli kreditlarni qisqartirish va xalqaro standartlarni to‘liq joriy etish bank tizimi barqarorligini yanada mustahkamlashning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi

**1-jadval**

#### O‘zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>2</sup>

| Ko‘rsatkichlar                     | Yillar |      |      |      |      |
|------------------------------------|--------|------|------|------|------|
|                                    | 2021   | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
| Bank aktivlari, trln so‘m          | 444    | 556  | 688  | 752  | 893  |
| Jami kreditlar hajmi, trln so‘m    | 326    | 392  | 478  | 533  | 610  |
| Depozitlar hajmi, trln so‘m        | 145    | 191  | 242  | 309  | 420  |
| Bank kapitali, trln so‘m           | 70     | 82   | 101  | 118  | 134  |
| Kapital yetarliligi, foizda        | 17.5   | 17.2 | 16.8 | 16.5 | 17.0 |
| Likvidlilik koeffitsiyenti, foizda | 48     | 47   | 46   | 45   | 46   |
| Muammoli kreditlar ulushi, foizda  | 5.3    | 5.0  | 4.8  | 4.5  | 4.2  |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021-2025 yillar davomida O‘zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, bank aktivlari hajmi 2021-yildagi 444 trln so‘mdan 2025-yilda 893 trln so‘mga yetib, qariyb ikki baravarga oshgan. Bu holat bank tizimining iqtisodiyotdagi roli ortib borayotganligini hamda bank xizmatlariga bo‘lgan talab kengayayotganligini ko‘rsatadi.

Kredit qo‘yilmalari hajmida ham sezilarli o‘shish kuzatilgan. 2021-yilda jami kreditlar hajmi 326 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 610 trln so‘mga yetgan. Mazkur holat iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish hajmi kengayib borayotganligini anglatadi. Ayniqsa, sanoat, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalariga ajratilayotgan kreditlar hajmining ortishi iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

1-jadvalda depozitlar hajmining ham yuqori sur‘atlarda o‘shib borayotgani aks etgan. Xususan, depozitlar hajmi 2021-yildagi 145 trln so‘mdan 2025-yilda 420 trln so‘mga yetgan. Bu esa aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Depozit bazasining kengayishi tijorat banklarining resurs salohiyatini mustahkamlash va kreditlash imkoniyatlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Muammoli kreditlar ulushi (NPL) 2021-yildagi 5,3 foizdan 2025-yilda 4,2 foizgacha kamaygan. Bu esa kredit portfeli sifati yaxshilanayotganligini va tijorat

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik hisoboti. - Toshkent, 2025.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lumotlari, “Moliyaviy barqarorlik hisoboti” hamda bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari orqali muallif ishlanmasi

banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligi ortayotganligini ko'rsatadi. Muammoli kreditlar ulushining pasayishi bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ijobiy omillardan biri hisoblanadi.

2021-2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasi kuzatilgan bo'lib, bu bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kelgusida bank tizimida risk-menejment tizimini yanada rivojlantirish, muammoli kreditlarni qisqartirish va xalqaro standartlarni to'liq joriy etish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy inqirozlarning oldini olish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ayrim tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolar tijorat banklari faoliyati samaradorligi hamda moliyaviy xavflarni boshqarish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy muammolar quyidagi jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy muammolar<sup>1</sup>

| Muammo turi                              | Muammoning mazmuni                                       | Bank tizimiga ta'siri                       |
|--|--|---|
| Muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi | Ayrim kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi              | Bank aktivlari sifati yomonlashadi          |
| Davlat ulushi yuqori banklar ustunligi   | Bank sektorida davlat banklari ulushining katta ekanligi | Raqobat muhiti sustlashadi                  |
| Risk-menejment tizimidagi kamchiliklar   | Monitoring va tahlil tizimining yetarli emasligi         | Moliyaviy xavflar ortadi                    |
| Likvidlilik bilan bog'liq muammolar      | Aktiv va passiv operatsiyalar nomutanosibligi            | To'lovga qobiliyatlilik xavfi kuchayadi     |
| Valyuta risklarining yuqoriligi          | Valyuta kursi tebranishlarining kuchayishi               | Moliyaviy yo'qotishlar yuzaga keladi        |
| Kiberxavfsizlik muammolari               | Raqamli tizimlarga noqonuniy aralashuv xavfi             | Operatsion zararlar ortadi                  |
| Tashqi iqtisodiy omillarga bog'liqlik    | Jahon moliya bozorlari beqarorligi ta'siri               | Bank tizimi barqarorligi susayadi           |
| Malakali mutaxassislar yetishmasligi     | Risk-menejment sohasida tajribali kadrlar kamligi        | Risklarni boshqarish samaradorligi pasayadi |

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolardan biri muammoli kreditlar ulushining ayrim banklarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidir. Kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi bank aktivlari sifatining yomonlashuviga, foydalilik darajasining pasayishiga va moliyaviy xavflarning ortishiga olib keladi. Shu sababli kredit monitoringi va qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari banklarda moliyaviy inqirozlarning oldini olish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar bank tizimining moliyaviy holati kredit portfeli sifati, kapital yetarliligi, likvidlilik darajasi va risklarni boshqarish samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini tasdiqladi. O'zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi bank aktivlari, kredit qo'yilmalari, depozitlar va kapital hajmi barqaror o'sib borayotganini ko'rsatdi. Muammoli kreditlar ulushining pasayishi risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashib borayotganidan dalolat berdi.

Tadqiqot davomida moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga kredit riski, likvidlilik riski, valyuta riski va operatsion risklar sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuningdek, bank tizimining tashqi iqtisodiy omillarga bog'liqligi, raqamli xavfsizlik masalalari va risk-menejment tizimining ayrim jihatlarini yanada rivojlantirish zarurligi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarida risklarni erta aniqlash va baholash tizimlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kredit portfeli sifatini oshirish uchun qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, raqamli skoring mexanizmlaridan foydalanish va kredit monitoringini kuchaytirish zarur. Banklarda stress-test amaliyotini muntazam qo'llash turli iqtisodiy sharoitlarda moliyaviy barqarorlik darajasini baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan zamonaviy risk-menejment vositalarini joriy etish moliyaviy xavflarni tezkor aniqlash va boshqarish samaradorligini oshiradi. Xodimlarning risklarni boshqarish bo'yicha kasbiy malakasini muntazam rivojlantirish, xalqaro standartlar asosida korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish ham bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Banklarda moliyaviy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan samarali risk-menejment tizimi, yetarli kapital bazasi, barqaror likvidlilik darajasi va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy omillari hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan izchil chora-tadbirlar bank tizimining ishonchliligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakat iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лаврушин О. И. Банковское дело : учебник / под ред. О. И. Лаврушина. - 13-е изд., перераб. и доп. - Москва : КноРус, 2021. - 630 с.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III Framework. - Basel, 2021.
3. Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. - Pearson Education, 2021.
4. Vahobov A.V., Murodov Sh.Sh. Xalqaro moliya munosabatlari. - Toshkent: Sharq, 2022.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabr O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4581969>
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash jarayonlari. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik hisoboti. - Toshkent, 2025.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, iyun, 6-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**